

**INFLYATSIYA VA ISHSIZLIK**

***Murodova Gulasal Ravshanjon qizi***

*(gulasalmurodova502@gmail.com)*

*Toshkent davlat yuridik universiteti*

*Xususiy huquq fakulteti talabasi*

**ANNOTATSIYA:** *Mazkur maqola hozirgi paytdagi asosiy muammolarga asoslangan ya'ni ular ishsizlik va inflyatsiya. Ushbu maqolada men asosan inflyatsiya va ishsizlikning asosiy turlari ularning sabab, oqibatlari va ta'siri haqida ma'lumot berib o'tdim qisqacha. Qo'shimcha sifatida olimlarning fikrlarini ham inobatga oldim va o'rgandim.*

***Муродова Гуласал Равшанжон кизи***

*(gulasalmurodova502@gmail.com)*

*Ташкентский государственный юридический университет*

*Студент факультета частного права*

**АННОТАЦИЯ:** *Эта статья основана на основных проблемах в настоящее время то есть безработица и инфляция. В этой статье я в основном рассмотрел основные типы инфляции и безработицы, их причины, последствия и последствия.кратко. В качестве дополнения я также учел и изучил мнения ученых.*

***Murodova Gulasal***

*(gulasalmurodova502@gmail.com)*

*Tashkent State University of Law*

*Student of private law faculty*

**ANNOTATION:** *This article is based on the main problems at the moment, namely, they are unemployment and inflation. In this article, I have mainly provided information on the Causes, Consequences and effects of inflation and the underlying types of unemployment in brief. As a supplement, I also took into account and studied the opinions of scientists.*

### **KIRISH**

Bozor iqtisodiyotida ishsizlik va inflyatsiya bir biriga nisbatan teskari tushunchalardir. Masalan, ishsizlik qacha katta bo'lsa inflyatsiya unga nisbatan pasayadi. Bular, bandlik ortishi va narxlar ko'tarilishiga olib keladi va bular sabab, aholi istemoli ortishi mumkin bo'lgan tovarlarning ortishi, talab narxlarining ko'tarilishi, ishsizlik tufayli aholining daromadi kamayadi va yalpi talab tushadi va bu narxning pastga tushishiga olib kelishi bilan izohlanadi.

Inflyatsiyaga ta'rif bersak, uning kelib chiqishiga ko'ra ikkita toifaga ajratish mumkin. Birinchisi, talab inflyatsiyasi bu turda talabning keskin oshishi yoki xaridorlar tomonidan inflyatsiyaning kutilmalarni shakllanishiga olib keladi va ishlab chiqarish sohasi aholining talabini to'liq qondira olmaydi. Natijada tovar va xizmatlar narxлари o'sadi. Ikkinchisi, taklif inflyatsiya ishlab chiqarish xarajatlarining keskin oshishi natijasida sodir bo'ladi. Ya'ni har xil jarayonlar va tarkibiy o'zgarishlar. Natijada ishlab chiqariladigan tovar xizmatlarning narxлари oshadi.

Inflyatsiya deganda, bizning ko'zimizning oldiga birinchi navbatda, pulning qadrsizlanishini keladi. U tovar va pul muvozanatining buzilishi, ehtiyojdan ortiq darajada pullarning ko'payib ketishi bilan tariflanadi. Bu narxlar darajasining barqaror o'sishi sodir bo'lganda muvozanatsizlik holati, narxlarning ozgina ko'tarilishi yoki keskin darajada ko'tarilishi inflyatsiya hisoblanmaydi, chunki bu bozorning qisqa muddatli faoliyatini aks etirishi mumkin. Pulning qadrsizlanishi deganda avvalombor, bir xil miqdordagi pul vaqti kelib kamroq miqdordagi tovar va xizmatlar sotib olish ya'ni vaqti kelib sotib olish mumkin bo'lgan tovar va xizmatlar miqdorini vaqti kelib kamayishi. Inflyatsiyani turli xil turlarini farqlash oqilona hisoblanadi. Bunday turlarga ajratish inflatsiyani taqsimlash, boshqa ta'sirlarini o'rganish hamda inflatsiyaga qarshi siyosatni tavsiya etish uchun foydalaniladi. Shuning uchun ham u uch turga bo'linadi va ular, talab inflyatsiyasi, narx-navo inflyatsiyasi va o'rnatilgan inflyatsiya.

### **MUHOKAMA VA TAHLILLAR**

Talab inflyatsiyasi ko'pincha rivojlanayotgan iqtisodiyot bilan

bog'liq. Odamlar sarflash uchun ko'proq pulga ega bo'lganda, ular o'z iste'mol tavarlariga talabni ko'paytiradilar, bu esa talabning oshishiga olib keladi. Ishlab chiqaruvchilar va xizmat ko'rsatuvchi xaridorlarni o'zlariga moslashish uchun harakat qilishadi va muvozanatni saqlab qolish uchun narxlarni oshiradilar. Talab va narxlarning bunday o'sish jarayoni iqtisodiy o'sish belgisi bo'lishi mumkin. Iqtisodiyotda talabning keskin oshib ketishini, ishlab chiqarishning real hajmi bilan taminlab bo'lmay qoldi bu esa, ortiqcha talab-narxlarning oshib ketishiga sabab bo'ladi va foyda olishga imkoniyat yaratiladi. Keynschilik nazaryasi bo'yicha iste'mol talabi, investitsiyalar yoki davlat xarajatlarining o'sishi, soliqlarning kamaytirish yoki eksportning sof o'sishi kabi talab yoki xarajatlarning avtonom o'sishi bo'lishi mumkinligini takitlaydilar, bu esa talab inflyatsiyasidir. Bunga misol qilib shuni aytishimiz mumkin, markaziy bank yuqori ish haqini talab qilayotgan ishchilarga ish haqi to'lash uchun ko'proq pul bosib chiqarishi mumkin.

Narx-navo inflyatsiyasi, iqtisotda talab oshsa narxlar oshadi degan frazaga bog'liqdir. Bu esa narx inflyatsiyasining oshishiga olib keladi. Narx inflyatsiyasi iste'molchilar to'laydigan narxlarning o'zgarishi, xarajat yoki ish haqining o'zgarishi emas. Odatda talabni qondirish uchun yetarli darajada taklif bo'lmasa, ba'zi hollarda narx yuqoriga ko'tariladi. Oddiy misol qilib narx- navo inflyatsiyasiga pandemiya davrini olishimiz mumkin chunki, o'sha paytda narx- navo keskin darajada ko'tarildi va shunga qaramasdan aholini tovarga bo'lgan talabi kamaymadi. Bu ham narx- navo inflyatsiyasiga yaqqol misoldir.

O'rnatilgan inflyatsiya, asosan ishchi va ish beruvchilarning ta'sirida kelib chiqadi yoki, ishchilar tomonidan ish beruvchi tomonidan berilgan ish haqqiga rozi bo'lmaganda yuzaga keladi lekin, bunday holatda ishchilar o'zlarining nominal ish haqqini olishga harakat qilishadi. Bu turda inflyatsiyaga qarshi kurashish uchun doimiy ravishda ish haqqi ham ko'tarilib boriladi va narxlarning o'sishiga olib keladi va bu holatda ish haqqini kutish inflyatsiya bosimini boshqarishga olib keladi. Endi ularning sababi va ta'siriga o'tsak.

Talab inflyatsiyasining sababi, iste'mol talabining o'sishi, uning ta'siri, narxlarning ko'tarilishi, iqtisodiy o'sish.

Xarajat inflatsiyasining sababi, ishlab chiqarish xarajatlarining osishi, uning ta'siri xarid qilish qobiliyatining pasayishi, daromadning pasayishi.

O'rnatilgan inflatsiyaning sababi, kelajakda narx o'sishini kutish, ta'siri narxlar va ish haqining o'sishi.

Birqancha olimlarning fikrcha inflyatsiya insonlar hayotiga ham o'z ta'sirini o'tkazmay qolmaydi masalan; aholining turli qatlamlari o'rtasida sezilarli farq mavjud, milliy valyuta kursi tushadi, fuqarolarning hukumatga nisbatan inshonchli kamayadi.

Ishsizlik-bu hozirgi kunda eng global muammolardan biridir butun bir yer sayyorasida. Nega deganimizda O'zbekistonda ham ishsizlik darajasi hozirgi kunda 8,8% tashkil etadi. Bu ko'rsatkich asosan mehnat bozoridagi talab va taklif muvozanatiga bog'liq ya'ni to'la bandlik yuzag keladi va bu bandlikning tabiiy chegarada bo'lishini bildiradi biroq bu muvozanant barqaror emas yani buziladi ham tiklanadi ham. Iqtisod nazaryachisi Vahabovning fikricha ishsizlik deganda, bozorda mehnat taklifining unga bo'lgan talabdan ortib ketishi natijasida ishlashga qobiliyati va ishtiyoqi bor kishilarning bir qismini ish topa olmay bekor qolishidir. Bunga binoan aytadigan bo'lsak ishsizlik asosan talab va taklifning bir muvozanatda bolmaganida yuzaga keladi masalan, taklif 40 mln bo'lsa va talab ham 40 mln bo'lsa ular o'rtasida muvozanant sodir bo'ladi va ishsizlik sodir bo'lmaydi lekin talab yoki taklif past bo'lsa unda ishsizlik ortishi mumkindir. Ishsizlik atamasi pensiya, oliy ma'lumot yoki nogironlik kabi sabablarga ko'ra ish kuchini tark etgan odamlarni o'z ichiga olmaydi chunki, oddiy bir pensioner yoki nogiron ishlash qobiliyatini allaqachon yo'qotib bo'lgan va ishsiz deb atash ham ularni noto'g'ri chunki, pensioner o'z ish faoliyatini allaqachon bajarib bolgan hisoblanadi. Oliy ma'lumotli fuqoro esa, bemalol o'z faoliyatini boshqa bir joyda yoki boshqa bir sohada ham amalga oshirishi mumkin bo'ladi ishsizlardan farqli o'laroq. Agar bir davlatning fuqorolari ishsiz bo'lsa, mamalakat ishlab chiqarishi mumkin bo'lgan tovar va xizmatlarni yo'qotadi va ishsizlik kelib chiqadi. Ishsizlik asosan oddiy bir ish topa olmaslikdan emas mehnatga talabning qisqarishi va texnikalarni sekin asta ishchilar o'rnini egallayotganidan kelib chiqadi. Texnikalar

hozirgi kunda juda tezkorlik bilan rivojlanmoqda va inson qilishi mumkin bo'lgan juda ko'p ishlarni ularga qaraganda ancha tezkor, sifatli va hech qanday ish haqisiz amalga oshirmoqda. Bu albatta korxonalariga maqull, ular bir nech o'n kishini o'rnini bosuvchi robotdan foydalanishadi afzal bilishadi biroq, bu rivojlanish ishsizlikka ham juda katta ta'sir o'tkazmasdan qolgani yo'q ular inson omili bajarishi mumkin bo'lgan ishlarni robotlarga berganlari sayin ishsizlik ham shunga mutanosib tarzda ko'tarilib borishi mumkin.

Ishsizlik o'zining kelib chiqish sabablari va davomiyligiga ko'ra turli shakllarga bo'linadi. Birinchisi, friksion ishsizlik, bu turdagi ishsizlikda mehnatga layoqatli insonlar biroz muddatga ishsiz bo'lishadi ya'ni, ular bir ish o'nini tashlab boshqasiga kirishmoqchi bo'lishgandagi davr hisoblanadi. Ichki bozorda ishni erkin tanlash imkoniyati bor va ular shu imkoniyatdan to'la to'kis foydalanishadi. Ular ish topish davomida bo'sh yurishlari friksion ishsizlikka misol bo'la oladi. Ular biroz mudatdagina ishsiz hisoblanishadi holos.

Ikkinchisi, tarkibiy ishsizlik, bu ishsizlikning sabablaridan biri, sanoatning texnologik yutuqlaridir. Bunga ko'ra hozirda robotlar insonlar o'rnini bema'lol bosa olishadi va korxonalar ham computer operatsiyalarini biladigan robotlarni olishni hohlaydi, chunki ular shunday ishlarga tizimlashtirilgan.

Uchinchidan, mavsumiy ishsizlik, bu turdagi ishsizlikda ishchilar ma'lum bir muddatga o'z ish faoliyatlarini to'xtatib turishadi. Bu mavsumiy ishlab chiqarishga, masalan, qishloq xo'jaligi, qurilish, turizm, yozgi yoki qishki dam olish sohasiga xos bo'ladi.

To'rtinchidan, yashirin ishsizlik, bu rasman ish bilan band bo'la turib, qisman ishlaydiganlar ya'ni kunning bir qismida ish faolyatidan tashaqarida qo'shimcha faoliyat bilan shug'ullanish.

Beshinchidan, sikilli ishsizlik, bunda ishlab chiqarish krizisga yo'liqanda mehnat talabining qisqarishi natijasida ishsiz qolishini bildiradi. Ishga kirish uchun kerakli yaxshi bilim va ko'nikmalar to'g'risida maslahat berish, shaxsiy rivojlanish asosida ishsizlikka yo'liqmaydi.

## **XULOSA**

Bu ikkala tushuncha juda katta ma'nolarga egadir. Biz ularning turlari, shakllari, va sabab oqibatlarini ko'rib chiqdik va juda keng ma'nolarini o'rgandik. Ishsizlik va inflyatsiya kamaytirish uchun ularning turlarini yaxshi o'rgangan holatda harakat qilinishi lozim davlat tomonidan, zeroki davlat fuqarolarini ish bilan ta'minlasi o'zining istisodiyotida ham o'sish bo'ladi. Inflyatsiga kelsak u ham davlat bilan uzviy bog'liqdir, u o'sishda davom etadi lekin, qachonki davlat narx-navoni bir meyorga olib kelsa har ikki tomon uchun manfaatli bo'lishi mumkindir.

## **FOYDALANILGAN MANBAALAR.**

1. A.Vahobovning "Iqtisodiyot nazaryasi"
2. <https://uz.unistica.com/inflyatsiya-nima-bu-bilan-kurashishning-sabablari-va-usullari/>
3. <https://www.investopedia.com/terms/u/unemployment.asp>
4. <https://medium.com/@ordinalhive/what-is-inflation-a5c643c9bfbc>
5. <https://www.economicdiscussion.net/inflation/inflation-types-causes-and-effects-with-diagram/6401>